HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQARISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLAKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
Mirzaraximova Aziza Azimdjanoyna	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi	
FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	973
Islamova Dilnoza Isamidinova	
ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	978
Uzaqov Jamshid Norboyevich	
TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	983
Shaymanov Mexridin Ibragimovich	
ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA.....	987
Sadikova Ra'no Abdullaevna	
FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVI RISKLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI	991
Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ UZAUTO MOTORS.....	996
Шарипов К.А., Зайнутдинова У.Дж.	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIK BILAN TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA MUAMMOLAR TADQIQI.....	1005
Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich, Saparov Murod Irgashovich	
YO'LOVCHI TASHISH XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1010
Alisher Kurambayev	
SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAKAFUL SUG'URTASINING O'RNI VA IMKONIYATLARI.....	1014
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.....	1020
Valikulov Sherzod Zaynitdinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSIYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....	1029
Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	1033
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi	
OLIY TA'LIMDA GENDER TENGLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1039
Xaydarova Sayyora	
ANALYZING THE COMPETITIVE ADVANTAGES OF SOUTH KOREA IN GLOBAL MICE TOURISM: HISTORICAL AND CULTURAL DIMENSIONS.....	1043
Ortikova Sabohat, Gulomova Mukhlisa, Ochilova Hilola Farmonovna	
MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	1050
Usmanova Gulida Valiyevna	
ETHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM: BALANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND MORAL RESPONSIBILITY.....	1055
Gulbakhor Sattarovna Abdullakhanova	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1062
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1068
Urazov Sadulla Shodiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS-NAZORATNING ROLI.....	1074
Zokirov Ismoiljon Ibroximovich	
AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI	1078
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
KO'MIR UCHUVCHI KULI ASOSIDAGI FLY ASH BETON VA GEOPOLIMER MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN IQTISODIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	1083
Muradov Botir Xayat	
КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1091
Рахимова Манзура Хамид кизи	
DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	1098
Sidikov Dilmurod	
MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1102
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1106
Рахимова Тамила Баходур кизи	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1113
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1120
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1125
Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi	
O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH	1129
Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi, Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi	
O'ZBEKISTONDA KREDIT VA MOLIYAVIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1135
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
O'ZBEKISTON FRANCHAYZING BRENDLARINING XALQARO BOZORLARDA IMIJINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY BRENDUKLAR YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI	1140
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQANING INVESTITSIYA OQIMLARI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK TAHLILI	1147
G'oyibnazarov Muhammad Xamidbekovich	
O'ZBEKISTON AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI VA IMKONIYATLARI	1152
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1157
Xakimov Akbar Anvarovich	



TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1162
Atamuradov Bozorboy Berdimuratovich	
O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	1168
Sayitbayev Shermirza Datkamirzaevich	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ БЮДЖЕТОВ ФТИЗИАТРИЧЕСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ОПЛАТЕ ПО КЛИНИКО-ЗАТРАТНЫМ ГРУППАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1173
Эрматов Зоҳид Шавкатович	
SUSTAINABLE TOURISM IN KARAKALPAKSTAN: LINKING CULTURE, COMMUNITIES, AND ECOLOGY.....	1179
Indira Ermekebaeva	
TARIFLASH VA REZERVLAHNING ILMIY-AMALIY MODEL (O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN).....	1184
Maxmudov Komoliddin Rozmetovich	
XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	1188
Akmalova Ziyoda Doniyorovna	
ECONOMIC EFFECTS OF GASTRONOMIC TOURISM: AN ANALYSIS OF TOURISTS' FOOD EXPENDITURE PATTERNS.....	1193
Iroda Abdieva G'ayrat kizi	
WAYS OF IMPROVING AGRITOURISM IN UZBEKISTAN	1198
Ruxangiz Mirfayzovna Mavlonova, Istamkhuja Olimovich Davronov	
TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI.....	1203
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1208
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISH: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.....	1213
Zokirov Fayzullo Maxamatovich	
ЦИФРОВОЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПРОДВИЖЕНИЯ БРЕНДА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА МЕЖДУНАРОДНОМ ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ.....	1219
Суюнова Камилла Бахромовна, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли	
ТЕОРИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО ВЫБОРА: ОБЗОР КЛАССИЧЕСКИХ ПАРАДИГМ, МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ПОДХОДОВ И СОВРЕМЕННЫХ ВЫЗОВОВ.....	1223
Камилова Наргиза Абдукахоровна	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К МОНЕТАРНОЙ ПОЛИТИКЕ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ИНФЛЯЦИЮ И ЗАНЯТОСТЬ	1227
Камилова Наргиза Абдукахоровна, Асадова Шоҳида Азаматовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TAKOFUL SUG'URTA FONDLARINI SHAKLLANTIRISH.....	1232
Alimov Sherzod Choriyevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1238
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI.....	1242
Xalikov Baxrom Shomurovich	
O'ZBEKISTON SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA ENERGIYA TA'SIRINI QISQA VA UZOQ MUDDATLI BAHOLASH SAMARASI	1247
Jabbarov Nurbek Atanazarovich	
IQTISODIYOTDA ENERGIYA TIZIMINING TUTGAN O'RNINI MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING NAZARIY AHAMIYATI	1252
Kuralbayev Jo'rabek Oybekovich	



DAVLAT TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	1256
Salamov Islom Tashkazakovich	
МЕХАНИЗМ ОПТИМИЗАЦИИ СТРУКТУРЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА.....	1263
Касимова Наргиза Сабитджановна	
SIRKULYAR BIZNES-MODELLARNI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI EVOLYUTSIYASI.....	1268
Isamuxamedov Boxodir Baxramovich	
HUDUDIIY MARKETING KONSEPSIYASI ASOSIDA NAVOIY VILOYATINING EKOTURISTIK RESURSLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1274
Shodiyev Sanjar Ruzukulovich, Abdurahmonova Shahlo Serali qizi	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	1281
Sabirov Xamid Qo'ziboyevich	
HUDUDLARNI BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1285
N.Bekmurodov	
KORXONALAR INVESTITSION VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	1291
Gafurova Umida Fatixovna	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI	1296
Fayziyev Orifjon Olimovich	
РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ И ЦИФРОВЫХ НАВЫКОВ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА.....	1302
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTON VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR QIYOSIY TAHLILI	1310
Mangliyev Bexzod To'raboy o'g'li	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTON VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR QIYOSIY TAHLILI

Mangliyev Bexzod To'raboy o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

E-mail: b.mangliyev@tsue.uz

ORCID: 0009-0000-9271-3881

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiya siyosatini takomillashtirish masalalari O'zbekiston va ayrim rivojlanayotgan davlatlar misolida qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot davomida 2024-2025-yillar kesimida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) dinamikasi, internet qamrovi darajasi hamda raqamli infratuzilmaning rivojlanish ko'rsatkichlari o'rganildi. O'zbekiston, Qozog'iston va Estoniya tajribasi asosida investitsiya siyosati samaradorligiga raqamli omillarning ta'siri baholandi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, investitsiya jarayonlarini raqamlashtirish, elektron hukumat tizimlarini rivojlantirish hamda ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hududiy raqamli tafovutlar, institutsional muammolar hamda raqamli boshqaruv mexanizmlarining to'liq integratsiyalashmaganligi investitsiya siyosati samaradorligini cheklovchi omillar sifatida aniqlandi.

Tadqiqot asosida O'zbekiston sharoitida investitsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot; investitsiya siyosati; to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI); raqamli infratuzilma; elektron hukumat; investitsiya jozibadorligi; qiyosiy tahlil; rivojlanayotgan davlatlar.

Abstract. This article examines the issues of improving investment policy in the context of the digital economy through a comparative analysis of Uzbekistan and selected developing countries. The study analyzes the dynamics of foreign direct investment (FDI), internet penetration rates, and digital infrastructure development indicators for the period 2024-2025. Based on the experiences of Uzbekistan, Kazakhstan, and Estonia, the impact of digital factors on the effectiveness of investment policy is assessed.

The findings indicate that the digitalization of investment processes, the development of e-government systems, and the integration of information databases contribute to enhancing investment attractiveness. At the same time, regional digital disparities, institutional challenges, and the incomplete integration of digital governance mechanisms are identified as limiting factors affecting investment policy effectiveness.

Based on the analysis, practical recommendations for improving investment policy in Uzbekistan under digital economy conditions are proposed.

Key words: digital economy; investment policy; foreign direct investment (FDI); digital infrastructure; e-government; investment attractiveness; comparative analysis; developing countries.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы совершенствования инвестиционной политики в условиях цифровой экономики на основе сравнительного анализа опыта Узбекистана и отдельных развивающихся стран. В исследовании проанализирована динамика прямых иностранных инвестиций (ПИИ), уровень проникновения интернета и показатели развития цифровой инфраструктуры за период 2024-2025 годов.



На примере Узбекистана, Казахстана и Эстонии оценено влияние цифровых факторов на эффективность инвестиционной политики. Результаты анализа показали, что цифровизация инвестиционных процессов, развитие систем электронного правительства и интеграция информационных баз данных способствуют повышению инвестиционной привлекательности.

Вместе с тем выявлены такие ограничивающие факторы, как региональные цифровые диспропорции, институциональные проблемы и неполная интеграция механизмов цифрового управления. По итогам исследования разработаны практические рекомендации по совершенствованию инвестиционной политики Узбекистана в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова: цифровая экономика; инвестиционная политика; прямые иностранные инвестиции (ПИИ); цифровая инфраструктура; электронное правительство; инвестиционная привлекательность; сравнительный анализ; развивающиеся страны.

KIRISH

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jahon iqtisodiyotining tarkibiy tuzilmasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Raqamli infratuzilmaning kengayishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ommalashuvi hamda elektron boshqaruv tizimlarining joriy etilishi investitsiya jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Xalqaro tashkilotlar hisobotlariga ko'ra, global investitsiya oqimlarining muhim qismi tobora raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq loyihalarga yo'naltirilmoqda [1]. Bu holat investitsiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirish jarayonida raqamli omillarni inobatga olish zaruratini kuchaytirmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiya jarayonlari an'anaviy mexanizmlardan farqli ravishda tezkorlik, shaffoflik va samaradorlik tamoyillariga asoslanadi. Xususan, raqamli boshqaruv vositalari investitsiya loyihalarini ro'yxatga olish, ekspertizadan o'tkazish, monitoring qilish va baholash jarayonlarini soddalashtiradi hamda tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi [2]. Shu bilan birga, keng polosali internet tarmoqlari va elektron davlat xizmatlarining rivojlanishi biznes yuritish qulayligini oshirib, investitsiya muhitining jozibadorligini mustahkamlaydi [3].

Rivojlanayotgan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiyani izchil amalga oshirayotgan mamlakatlarda investitsiya siyosati yanada moslashuvchan va samarali tus olmoqda. Raqamli platformalar orqali investitsiya jarayonlarini boshqarish, ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash hamda investorlar bilan ochiq muloqotni ta'minlash investitsiya oqimlarining barqarorligini oshirishga xizmat qiladi [4]. Shu bois investitsiya siyosatini takomillashtirishda raqamli infratuzilma va texnologik omillarning roli tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda investitsiya muhitini yaxshilash va raqamli transformatsiyani jadallashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish hamda investitsiya jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [5]. Investitsiya siyosatini liberallashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda infratuzilmani modernizatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mamlakatning investitsiya jozibadorligini oshirishga qaratilgan.

Biroq raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiya siyosatining samaradorligini rivojlanayotgan davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilish masalasi yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi, elektron boshqaruv mexanizmlari va investitsiya siyosati natijadorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi — raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash, O'zbekiston tajribasini ayrim rivojlanayotgan davlatlar bilan qiyosiy asosda baholash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot va investitsiya siyosati o'rtasidagi bog'liqlik masalasi so'nggi yillarda xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilmoqda. Xususan, UNCTAD hisobotlarida global investitsiya oqimlarining tarkibiy tuzilmasida raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq loyihalar ulushi ortib borayotgani ta'kidlanadi [1]. Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi investitsiya muhitining barqarorligi va jozibadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi. Shuningdek, investitsiya siyosatini raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uyg'unlashtirish zarurati alohida e'tirof etilgan [2].

Jahon banki tadqiqotlarida raqamli infratuzilma va keng polosali internet tarmoqlarining rivojlanishi biznes yuritish qulayligini oshirishi, bu esa investitsiya oqimlariga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy asoslangan [3]. Raqamli platformalar orqali davlat xizmatlarini ko'rsatish investitsiya jarayonlarida shaffoflikni ta'minlab, investorlar ishonchini mustahkamlashi ta'kidlanadi.



OECD tomonidan olib borilgan tahlillarda davlat boshqaruvini raqamlashtirish investitsiya siyosati samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida baholanadi [4]. Xususan, investitsiya jarayonlarini elektron monitoring qilish, ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash hamda ochiq axborot tizimlarini joriy etish orqali investitsiya loyihalarining natijadorligini oshirish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston misolida ham raqamli iqtisodiyot va investitsiya siyosati o'rtasidagi bog'liqlik dolzarb ahamiyat kasb etadi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish hamda investitsiya jarayonlarini elektron tizimlar orqali boshqarish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [5]. Biroq mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiya siyosati samaradorligini rivojlanayotgan davlatlar kesimida qiyosiy baholash yetarli darajada tizimli amalga oshirilmagan.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda O'zbekiston tajribasini ayrim rivojlanayotgan davlatlar bilan solishtirish asosida investitsiya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash maqsad qilingan. Bu yondashuv mavjud ilmiy ishlardagi metodologik bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy tahlil, statistik tahlil, tizimli yondashuv hamda mantiqiy umumlashtirish usullari tashkil etadi. Qiyosiy tahlil yordamida O'zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati ko'rsatkichlari ayrim rivojlanayotgan davlatlar tajribasi bilan solishtirildi. Tadqiqot doirasida mintaqaviy va iqtisodiy rivojlanish darajasi jihatidan o'xshash bo'lgan davlatlar tajribasi o'rganildi.

Tahlil uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlar tanlab olindi:

- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) hajmi;
- raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi (internet qamrovi, elektron hukumat indeksi);
- investitsiya muhitining jozibadorlik ko'rsatkichlari;
- elektron davlat xizmatlari va raqamli boshqaruv tizimlarining mavjudligi.

Ma'lumotlar bazasi sifatida xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari hamda milliy statistik manbalardan foydalanildi [1–4]. Tahlil davri sifatida 2023-2025-yillar oralig'i tanlandi. Mazkur davr raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi bilan tavsiflanadi.

Statistik ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida dinamik qatorlar tahlili, nisbat ko'rsatkichlari hamda strukturaviy tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida investitsiya siyosati samaradorligining raqamli omillar bilan o'zaro bog'liqligi aniqlanib, uni takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqildi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilib, nazariy xulosalar empirik ma'lumotlar asosida umumlashtirildi. Mazkur yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiya siyosati samaradorligini baholashda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. World Bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda FDI net inflows (% of GDP) ko'rsatkichlari quyidagicha shakllangan [6] (1-jadval).

1-jadval. FDI net inflows (% of GDP), 2024-yil¹

Davlat	FDI (% of GDP), 2024-yil
O'zbekiston	2,5 %
Qozog'iston	0,7 %
Estoniya	–8,0 %

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2024-yilda O'zbekistonning FDI ko'rsatkichi Qozog'istonga nisbatan yuqoriroq bo'lgan. Estoniyada esa mazkur ko'rsatkich manfiy qiymatni qayd etgan bo'lib, bu holat kapital chiqimi yoki reinvestitsiya hajmining qisqarishi bilan izohlanadi.

2025-yilning uchinchi choragi bo'yicha CEIC Data ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda FDI hajmi YalMga nisbatan 3,3 % ni tashkil etgan [7]. Mazkur ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan o'sish tendensiyasini namoyon etadi.

Ushbu dinamika O'zbekistonda investitsiya muhitini liberallashtirish hamda raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish investitsiya oqimlariga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi.

Raqamli infratuzilma va internet qamrovi (2024–2025-yillar)

1 Manba: World Bank Data [6].



Raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi investitsiya jozibadorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. World Bank ma'lumotlariga ko'ra, internetdan foydalanuvchilar ulushi quyidagicha shakllangan [8] (2-jadval).

2-jadval. Internetdan foydalanuvchilar ulushi (% aholi), so'nggi mavjud ma'lumot²

Davlat	Internet foydalanuvchilari (%)
O'zbekiston	89 %
Qozog'iston	93 %
Estoniya	92 %

Qozog'iston va Estoniyada internet qamrovi 90 foizdan yuqori bo'lib, bu mazkur davlatlarda raqamli infratuzilmaning nisbatan yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. O'zbekistonda ham internet qamrovi sezilarli darajada oshgan bo'lsa-da, hududlar kesimida tafovutlar saqlanib qolmoqda.

Estoniya alohida e'tiborga loyiqdir. UN E-Government Survey ma'lumotlariga ko'ra, ushbu mamlakat elektron hukumat rivojlanish indeksi (EGDI) bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi [9]. Bu holat investitsiya jarayonlarining keng qamrovli raqamlashtirilganligini anglatadi.

2024-2025-yillar kesimida o'tkazilgan qiyosiy tahlil quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

Birinchidan, O'zbekistonda 2024-2025-yillarda FDI ko'rsatkichlarining ijobiy dinamika namoyon etishi investitsiya siyosatining izchil liberallashtirilishi hamda raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi bilan bevosita bog'liqdir.

Ikkinchidan, Qozog'istonda internet qamrovi yuqori darajada bo'lishiga qaramay, FDI ko'rsatkichining nisbatan pastligi raqamli infratuzilmaning o'zi yetarli emasligini, investitsiya siyosati sifati va institutsional muhitning barqarorligi ham muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Uchinchidan, Estoniya misolida raqamli davlat modeli investitsiya jarayonlarini maksimal darajada soddalashtirish imkonini bergan bo'lsa-da, FDI ko'rsatkichlarining manfiy qiymatda shakllanishi global iqtisodiy sharoit va kapital oqimlarining siklik o'zgarishlari bilan izohlanadi.

Shunday qilib, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsiya siyosati samaradorligi faqat FDI hajmi bilan emas, balki raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi, elektron boshqaruv tizimlarining samaradorligi hamda institutsional muhitning sifat ko'rsatkichlari bilan ham kompleks tarzda bog'liqdir. O'zbekiston uchun ustuvor vazifa — raqamli boshqaruv mexanizmlarini hududlar kesimida yanada chuqurlashtirish hamda investitsiya jarayonlarini to'liq integratsiyalashtirishdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiya siyosati samaradorligi ko'p jihatdan raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi, elektron boshqaruv tizimlarining integratsiyalashuv darajasi hamda institutsional muhit sifati bilan bevosita bog'liqdir. 2024-2025-yillar kesimida O'zbekiston, Qozog'iston va Estoniya misolida amalga oshirilgan qiyosiy tahlil investitsiya jarayonlarining raqamlashtirilishi investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishda muhim omil ekanini tasdiqlaydi. O'zbekistonda 2024-2025-yillarda FDI ko'rsatkichlarining ijobiy dinamika namoyon etishi amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati hamda raqamli transformatsiya jarayonlarining samaradorligini anglatadi. Shu bilan birga, rivojlangan raqamli infratuzilmaga ega davlatlar tajribasi investitsiya jarayonlarini yanada soddalashtirish, shaffoflikni oshirish va boshqaruv mexanizmlarini chuqur integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari asosida investitsiya jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, investitsiya loyihalarini ro'yxatdan o'tkazish, ekspertiza, monitoring va baholash bosqichlarini yagona elektron platforma orqali amalga oshirish mexanizmini kuchaytirish zarurligi asoslandi. Shuningdek, hududiy raqamli tafovutni qisqartirish maqsadida qishloq va chekka hududlarda raqamli infratuzilmani kengaytirish hamda investitsiya loyihalarining hududiy diversifikatsiyasini rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron hukumat tizimlarini investitsiya siyosati bilan chuqur integratsiyalash, davlat organlari ma'lumotlar bazalarini yagona axborot tizimiga birlashtirish investitsiya jarayonlarining tezkorligi va shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, investitsiya loyihalarining samaradorligini real vaqt rejimida baholash imkonini beruvchi raqamli monitoring mexanizmini joriy etish hamda raqamli iqtisodiyot va investitsiya boshqaruvi sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash investitsiya siyosati natijadorligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Xalqaro ilg'or tajribalarni, xususan, Estoniya kabi raqamli rivojlangan davlatlar amaliyotini milliy sharoitga moslashtirish investitsiya jarayonlarini soddalashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi. Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiya siyosatini

2 Manba: World Bank Data [8].



takomillashtirish bo'yicha tizimli va kompleks yondashuv O'zbekistonning investitsiya jozibadorligini yanada oshirish, investitsiya oqimlarini barqarorlashtirish hamda iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNCTAD. *World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All*. — Geneva: United Nations, 2023. — 205 bet.
2. UNCTAD. *World Investment Report 2024: Investment Facilitation and Digital Government*. — Geneva: United Nations, 2024. — 184 bet.
3. World Bank. *Digital Development Overview 2022*. — Washington, DC: World Bank Group, 2022. — 96 bet.
4. OECD. *Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan*. — Paris: OECD Publishing, 2025. — 156 bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida: Farmon. — Toshkent, 2020. — 32 bet.
6. World Bank. *Foreign Direct Investment, Net Inflows (% of GDP) — World Development Indicators*. — Washington, DC: World Bank, 2024. — Ma'lumotlar bazasi.
7. CEIC Data. *Uzbekistan Foreign Direct Investment (% of GDP), 2025*. — CEIC Database, 2025. — Statistik ma'lumotlar bazasi.
8. World Bank. *Individuals Using the Internet (% of Population) — World Development Indicators*. — Washington, DC: World Bank, 2024. — Ma'lumotlar bazasi.
9. United Nations. *E-Government Survey 2024*. — New York: United Nations, 2024. — 312 bet.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
